Non zavodi

Versiya: 2026-11-03 (non bf5c509). Videolar: softdoc.uz/qollanmalar. Barcha ism, tovar va summalar — demo uchun uydirma ma'lumot.

Non zavodi va qandolat sexi uchun: zames norma va fakt, rasstoyka va pech taymeri, vazn nazorati, un unumi va partiya kartasi, energiya bilan tannarx, FIFO ombor, yetkazish va qaytgan non — ko'rinmas yo'qotish so'mda.

Mundarija


- Sex: Zames: norma va fakt; Rasstoyka va pech taymeri; Vazn nazorati
- Unum va tannarx: Rahbar paneli va ko'rinmas yo'qotish; Un unumi va partiya kartasi; Tannarx va qandolat
- Ombor va yetkazish: Ombor: FIFO va muddat; Yetkazish, reys va qaytgan non; Sozlamalar
- Ko'p so'raladigan savollar

Sex

Zames: norma va fakt

Mahsulot va un miqdori, har ingredient normasi, ±3% og'ish bloki, xamir harorati, rasstoykaga qo'yish. Video: 1:43.

1. «Sex» → mahsulotni tanlang, un miqdorini yozing — ingredient normalari qayta hisoblanadi.
2. Har ingredientning tortilgan miqdorini kiriting. Og'ish chegaradan oshsa — qizil, «Tasdiqlash» bloklanadi.
3. Xamir haroratini yozing (me'yordan tashqarisi ogohlantiriladi) → «Tasdiqlash — xamir tindirishga».
4. Partiya kartasida rasstoyka harorati va namligi → «Rasstoykaga qo'yish» — taymer boshlanadi.




Og'ish bloki

> **Eslatma.** Retsept partiyaga nusxa bo'lib yoziladi — keyin retsept o'zgarsa ham partiya o'zgarmaydi.

Rasstoyka va pech taymeri

Taymer paneli, yashil me'yor zonasi, pechga qo'yish, pechdan chiqarish (upyok), skladga (unum, usushka, tannarx). Video: 1:44.

1. «Sex» → «Rasstoyka va pech»: har partiya kartasida o'tgan daqiqa va yashil me'yor zonasi; oshsa «O'tib ketdi».
2. Rasstoykadagi kartada pech (P-01/P-02) va harorat → «Pechga».
3. Partiya kartasida issiq non massasi → «Pechdan chiqdi» (upyok hisoblanadi).
4. Sovuq massa, yaroqli dona, brak va sababi → «Skladga» — unum, usushka va tannarx hisoblanadi.




Taymer kartalari

Vazn nazorati

8 dona namuna, o'rtacha vazn va og'ish, bugungi tekshiruvlar, oylik vazn zarbasi. Video: 1:22.

1. «Sex» → «Vazn nazorati»: mahsulot va bo'luvchi (#1–#3).
2. 8 ta namuna vaznini grammda kiriting — o'rtacha, og'ish va me'yordagi soni darhol chiqadi → «Saqlash».
3. «Vazn zarbasi»: o'rtacha og'ish (g) va kunlik dona — oyiga necha kg ortiqcha non.



Namuna tortish


> **Eslatma.** Tavsiya — har 30 daqiqada 8 dona; chegara sozlamada (sukut ±2%).

Unum va tannarx

Rahbar paneli va ko'rinmas yo'qotish

Demo rollari, kun ko'rsatkichlari, un unumi 14 kun, ogohlantirishlar, yo'qotish so'mda, smenalar va qarzdor do'konlar. Video: 2:05.

1. Ochiq demo (/demo): «Rahbar», «Sex operatori» yoki «Ekspeditor» — parolsiz kirish.
2. Panel: un sarfi va zaxira kunlari, chiqqan non, o'rtacha unum (me'yor bilan), brak, sof tushum.
3. «Ko'rinmas yo'qotish» — normadan past unum, ortiqcha vazn, brak va qaytgan non so'mda, oyiga taxmin.
4. Un unumi grafigida ustunni bosing — partiyalar kesimi. Ogohlantirishlar har biri tegishli sahifaga olib boradi.




Rahbar paneli: ko'rinmas yo'qotish

Un unumi va partiya kartasi

Kun bo'yicha un unumi, partiya kesimi, unum zarbasi kalkulyatori, partiya kartasi (norma/fakt, natija, tannarx). Video: 1:27.

1. «Unum»: kunni tanlang — kunlik un, non, o'rtacha unum; partiya kesimida me'yordan past qatorlar qizil.
2. «Un unumi zarbasi»: kunlik un, un narxi, kutilgan va real unum — kuniga va oyiga yo'qotish.
3. Partiya raqamini bosing — bosqichlar vaqti, retsept nusxasi (FIFO summa), unum, upyok, usushka va 1 dona tannarxi.




Partiya kartasi: natija

Tannarx va qandolat

Bir dona tannarxi energiya bilan, tarkib jadvali, tort retsepti va tort partiyasi. Video: 1:30.

1. «Tannarx»: davrni tanlang — har mahsulotda 1 dona tannarxi, sotuv narxi, marja va energiya ulushi.
2. Tarkib jadvali: xom ashyo, energiya, ish haqi, amortizatsiya, qadoq — gaz va elektr narxi sozlamadan.
3. «Qandolat»: tort retsepti 1 donaga, joriy narxlar, jami tannarx va marja.
4. «Ishlab chiqarish»: tort va dona → «Saqlash» — xom ashyo FIFO bilan chiqadi.




Tannarx tarkibi

Ombor va yetkazish

Ombor: FIFO va muddat

Tayyor non partiyalari muddat bo'yicha, muddati o'tganini hisobdan chiqarish, un va xom ashyo zaxirasi va kirimi. Video: 1:31.

1. «Ombor» → «Tayyor non»: mahsulot bo'yicha sotsa bo'ladigan dona; partiyalar muddat bo'yicha, tepada eng eski.
2. «O'TGAN — sotilmasin» partiyani «Hisobdan chiqarish».
3. «Un va xom ashyo»: qoldiq va necha kunga yetishi (oxirgi 7 kun sarfi).
4. Kirim: xom ashyo, miqdor, narx, un namligi, to'lov, yetkazuvchi → «Saqlash».




Partiyalar muddat bo'yicha

> **Eslatma.** Reysga yuklashda eng eski partiya o'zi olinadi, muddati o'tgani yuklanmaydi.

Yetkazish, reys va qaytgan non

Kunlik yetkazish, qaytish foizi, reys yuklash, do'konda qaytgan non va to'lov, do'kon qarzi. Video: 1:45.

1. «Yetkazish»: kunlik yetkazilgan, qaytgan va sof summa; o'ngda 7 kunlik qaytish foizi.
2. «Yangi reys»: marshrut, ekspeditor, mashina; doimiy buyurtma o'zi to'ladi → «Yuklash va jo'natish».
3. Reys kartasida har do'kon uchun qaytgan non (mahsulot, dona, sabab) va to'lov → «Saqlash».
4. «Do'konlar» → do'kon: qarz, kredit limiti, qaytish foizi, doimiy buyurtma va hisob-varaq.




Yangi reys

> **Eslatma.** Qaytgan non do'kon narxida qarzni kamaytiradi va alohida hisoblanadi.

Sozlamalar

Normalar, energiya narxlari, mahsulotlar, retseptlar va xom ashyo. Video: 1:24.

1. «Sozlamalar» → «Normalar»: unum, zames, rasstoyka, pech, sovutish, vazn, energiya, yetkazish, ombor, kassa → «Saqlash».
2. «Mahsulotlar»: narx, kutilgan unum, yaroqlilik, ish haqi, amortizatsiya, qadoq.
3. «Retseptlar»: non — 100 kg unga, tort — 1 donaga. «Xom ashyo» — birlik va narx.



Normalar

> **Eslatma.** O'zgarish keyingi partiyalardan qo'llanadi; mavjud partiya o'z retsept nusxasi bilan qoladi.

Ko'p so'raladigan savollar

Un unumi qanday hisoblanadi?

Chiqqan non massasi / sarflangan un × 100. Kutilgan unum mahsulot sozlamasida, me'yor chegarasi «Normalar»da.

Ko'rinmas yo'qotish nimadan iborat?

Normadan past un unumi (sotuv narxida), ortiqcha dona vazni, brak (tannarxda) va do'konlardan qaytgan non.

Energiya tannarxga qanday kiradi?

Gaz — pech vaqti × soatlik sarf × gaz narxi, elektr — partiyaga belgilangan kVt·soat × narx.

Demo'dagi ma'lumotlar haqiqiymi?

Yo'q, uydirma. Demo har kecha tiklanadi, kunduzi sexda yangi partiyalar paydo bo'lib turadi.

Savol qolsa: softdoc.uz → Aloqa. Bepul demo: non.softdoc.uz/demo